

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

7/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/7 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Umurqulov Kamoliddin*  
O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI ..... 9-12

*Muhamedov Asror*  
G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR ..... 13-22

*Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna*  
SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA  
AMALIYOTLARI ..... 23-30

*Сабитова Коринна Сабировна*  
ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В  
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ ..... 31-37

*Vaxabov Azizjon Xamidovich*  
USMONIYLAR SALTANATI VA O`RTA OSIYO XONLIKLARINING O`ZARO DIPLOMATIK HAMDA  
ELCHILIK ALOQALARI ..... 38-44

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich*  
MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH  
MASALALARI ..... 45-51

*Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboyevna*  
QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA TEXNIK SALOHİYATDAN FOYDALANISHNING  
IQTISODIY MONIYATI VA NAZARIY ASOSLARI ..... 52-57

*Самадов Салохиддин Исматович*  
ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ..... 58-66

*Хуррамов Азамат Файзуллаевич*  
ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ ..... 67-74

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich*  
YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVIY O'ZGARISHLAR  
DINAMIKASI ..... 75-80

*Mustafaev Alimardon Alijonovich*  
THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT  
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT ..... 81-89

*Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich*  
"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" ..... 90-95

*Shadmanov Qurbon*  
FRENIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH  
G'OYALARI ..... 96-101

<i>Usmonov Farkhod Lapasovich</i> PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION .....	102-109
<i>Atakulov Mavlonbek Saitkulovich</i> YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI .....	110-115
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Amanov Abdijabbor Sattarovich</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI .....	116-121
<i>Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna</i> DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI .....	122-125
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR TASNIFI .....	126-132
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayevna</i> TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL .....	133-138
<i>Aripova Aziza Xasanovna</i> NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI .....	139-143
<i>Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna</i> QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) .....	144-148
<i>Axmedova Aziza Komilovna</i> PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI .....	149-153
<i>Зокирова Шахзода Нодиржон қизи</i> ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ .....	154-158
<i>Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna</i> METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE .....	159-163
<i>Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi</i> ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI.....	164-169
<i>Negmatova Mumtozbeqim</i> UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR .....	170-174
<i>Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi</i> O'TKIR HOSHI MOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI .....	175-178
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Ismaylov Raxat Aminbayevich</i> NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI .....	179-183
<i>Сеитниязов Камарбек Парахатович</i> ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	184-191

<i>Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич</i> ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА НАЗОРАТИ .....	192-198
<i>Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING HUQUQIY ASOSLARI .....	199-210
<i>Шокиров Ойбек Азизжон ўғли</i> ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ .....	211-218
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna</i> RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'P BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI .....	219-222
<i>Rabbimova Nodira Tashtemirovna</i> FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING PEDAGOGICAL APPROACHES .....	223-227
<i>Саидова Камола Усканбаевна</i> КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ .....	228-233
<i>Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ .....	234-239
<i>Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович</i> МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ .....	240-245
<i>Buronova Iroda</i> UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI .....	246-250
<i>Matyakubova Feruza Egamovna</i> ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND MODERN EDUCATION .....	251-254



**Received:** 10 September 2024  
**Accepted:** 15 September 2024  
**Published:** 25 September 2024

*Article / Original Paper*

## **HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE ISSUES OF SPEECH CULTURE AND SPEECH ETHICS**

**Aripova Aziza Khasanovna**

Associate Professor of the Department of Uzbek and Russian Languages of JIDU, PhD  
mumtozim@mail.ru

**Abstract.** In this article, the historical development of the issues of speech culture and speech etiquette, linguistic process, and interpretation as speech skills are highlighted. The interpretation of the study of the concept of speech culture by scientists, the study of the art of oratory in the ancient East from the point of view of the theory and practice of the art of preaching, the skill of speaking at a beautiful and artistic level, the skillful use of the wealth of language, and its application in accordance with the content of the text. the interpretation of the issues is given.

**Key words:** speech culture, oratory, preaching, social direction, speech event, speech skill.

## **NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI**

**Aripova Aziza Xasanovna**

JIDU O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, f.f.n. PhD

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nutq madaniyati va nutq odobi masalalarining tarixiy takomili, lisoniy jarayoni, nutqiy malaka sifatida talqin etilishi yoritilgan. Nutq madaniyati tushunchasining olimlar tomonidan o'rganilishi talqini, qadimda Sharqda notiqlik san'atining voizlik san'ati nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan tadqiq, chiroyli va badiiy saviyada nutq so'zlash mahorati, til boyligidan mohirlik bilan foydalanish, matn mazmuniga moslab qo'llash kabi masalalar talqini berilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq madaniyati, notiqlik, voizlik, ijtimoiy yo'nalish, nutq hodisasi, nutqiy malaka.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N19.1>

Bugungi globallashuv jarayonlari shiddat bilan rivoj topayotgan kunda umumjahon xalqlar o'rtasida komil inson, ma'naviy barkamol insonga talab yuqoridir. Komil inson - bu o'zligini, tarixini bilgan, o'z urf-odatlarini o'zlashtirgan, erkin, mustaqil fikrga ega, bilimdon odamlargina emas, balki o'z fikrlarini ravon, aniq va go'zal ifodalaydigan kishi hamdir. Komil inson ma'naviyati yuksak darajaga yetsa, kamol topgan shaxsdir: ...Ma'naviyat – uzluksiz harakatdagi jarayon. Man'aviyat deganda, avvalambor, odamlarni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchdir.

Komil insonni tarbiyalashsh – oila, ta'lim-tarbiya muassasalari, umuman olganda, jamiyatning oliy maqsadidir. Bu yo'lda yoshlarimiz sabr va chidam bilan bilim olishga astoydil harakat qilishlari kerak bo'ladi. Mamlakatimizda yashayotgan har bir yosh bitta maqsad yo'lida

izlanishi, bilim olishi shart. Bu-yo'l Yangi O'zbekistonning ertangi kuni, kelajagi va istiqbolini belgilab beruvchi yo'l. Ushbu ezgu maqsadga faqat bilim orqali erishish mumkinligini barcha yoshlarimiz teran anglab yetishlari lozim.

Tarixdan ma'lumki, insonning kimligi uning ikki jihati – xatti-harakati va so'zi (nutqi), odamlar bilan o'zaro muomalasida ayon bo'ladi [1] Mana shu ikki jihat fikrni to'liq va mukammal ifodalashga yordam beradi. Fikrni go'zal ifodalash-nutq madaniyatini egallashga bog'liq. Bu masala bilan odamlar juda qadimdan qiziqib kelganlar.

Nutq madaniyati va notiqlik mahorati qadimdan shakllanib kelgan ijtimoiy hodisa. Qadimgi Yunon mamlakatida bu ta'limot nazariy jihatdan asoslandi: epos, she'riyat, daroma, musiqa va boshqa san'at namunalari qatorida ritorika (so'zlash mahorati) yuksak nutqiy san'at namunasi hisoblangan.

Markaziy Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati va uslubiyat muammolari bilan shug'ullanish qadimdan mavjud bo'lgan va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Mashhur turkiyshunos Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi bu masalaga oid ba'zi mulohazalari, keltirilgan lisoniy dalillari, nutq madaniyati va nutq odobi masalalari juda qadimdan o'rta qo'yib kelinganligidan dalolat beradi.

Nutq madaniyati ifodasining taniqli tadqiqotchisi E.Begmatov bu haqida quyidagilarni yozadi: «...Mahmud Koshg'ariyning mashhur «Devoni lug'atit turk» asarida «kuy so'zini tushunib bo'lmaydi, qattiq toshni yiqitib (sindirib) bo'lmaydi», «odam so'zning shirinligi bilan lazzatlansa, unga asir bo'lib ketadi», «Odobning boshi til» singari aforizmlarini uchratish mumkin» [2]. Nutq odobi masalasi XI asrda yashab ijod qilgan xorazmlik buyuk olim, alloma Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariyning «Navobig' ul-kalim» («Nozik iboralar») [3] nomli asarida yoritilgandir. Chiroyli va badiiy saviyada nutq so'zlash, mazmun mohiyati jihatidan qisqa, mazmundor nutq odobini saqlash ham bir san'atdir. Qadimda Sharqda notiqlik san'ati – voizlik deb atalgan. «Va'z» so'zi arabcha targ'ib qilish, pand- nasihat degan ma'nolarni anglatadi, «voiz» so'zi esa va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs ma'nosini bildiradi.

IX asrgacha Sharqda voizlik vazifasini xalifalar, shohlar bajarganlar.

IX asrdan boshlab davlat hukmdorlari bu tadbirni o'z ixtiyorlaridagi maxsus so'z ustalariga yuklab, ularning ism-shariflariga "Voiz" so'zini qo'shib aytganlar.

XII asrdan boshlab voizlik san'ati nazariyasi va amaliyotini talqin va tavsif etadigan ko'plab ilmiy, tarixiy, uslubiy risolalar yozilgan. Bular qatoriga Muhammad Rafiq Voizning «Avbob ul-inon», Voiz Qazviniyning «Zilolu maqol» Voiz Shirvoniyning «Ahsan ul-ahodis», Muhammad Voizning «Hidoyat ul-taqvim», Quraysh Saidiyning «Anis ul-voizin», Voiz Samarqandiyning «Ravzat ul-voizin», Qozi O'shiyning «Miftoq ul-najjih», Voiz Koshifiyning «Dah Majlis», «Mahzan ul-insho» kabi asarlari kiradi. Shuningdek, tarixchi, shoir, muhaddislarning asarlarida ham voizlik san'atiga aloqador ba'zi fikrlar bayon etilgan.

Nutq madaniyati, notiqlik san'ati masalasi bilan so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy ham jiddiy shug'ullangan. Alisher Navoiy davrida o'zbek tili mavqei, notiqlik san'ati ancha yuksak darajaga ko'tarildi. Alisher Navoiy «Mahbubul-qulub» asarining 24-bobini voizlikka bag'ishlagan. Ushbu asarida Xo'ja Muayyad Mehnagi, Mavlono Riyoziy, Mavlono Irshod, Hotam Asom, Voiz Koshifiy, Muin Voiz kabi o'nlab voizlarning nutq mahoratlari haqida so'z yuritilgan.

O'sha davrda notiqlik san'ati va unga yaqin sohalar bilan shug'ullanuvchilarni «nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badi-hago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar» [4] deb yuritilgan.

Voizlik san'ati asosan uch shaklda bo'lgan: dabirlik, xatiblik, muzakkirlik. Dabirlik – davlat maqomidagi yozishmalarni qiroat bilan o'qish, xatiblik – xutba o'qish, muzakkirlik – juma kunlaridagi, hayit va boshqa tantanalardagi nutqlardan iborat bo'lgan.

Voizlik san'ati tinglovchilarning, voizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqe va lavozimlarini hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda ham uchga ajratilgan: sultoniyyot – yuqori tabaqa a'yonlari uchun; jihodiya-janggoh ishtirokchilari uchun; g'aribona – oddiy fuqarolarga mo'ljallangan nutqlar. Har birining yozilishi, o'qilishi, shuningdek, va'z etilish shartlari, usuli har xil bo'lgan.

Nutq va nutq madaniyati muammolari bilan ilmiy asosda jiddiy shug'ullanish lozimligi masalasi birinchi marta Praga lingvistik to'garagi vakillari tomonidan o'rtaga tashlandi. Ular 1929- yilda Pragada bo'lib o'tgan slavistlarning I se'zdi uchun tayyorlangan maxsus tezislari va keyingi asarlarida bu masalaga alohida to'xtalib o'tganlar. Praga lingvistik to'garagining nutq madaniyati va adabiy normaga oid ilmiy fikrlari E.Begmatovning ba'zi ishlarida batafsil tahlil qilingan. [5] U o'z tahlillari tufayli shunday xulosaga kelgan: «Adabiy til, adabiy norma va nutq madaniyati haqidagi Praga lingvistik to'garagi oldiga surgan qarashlar barcha xalq adabiy tillari uchun umumiy qonuniyat deyish mumkin. O'z navbatida, ushbu ta'limot o'zbek adabiy tili va o'zbek nutq madaniyatining ham bir qator masalalarini ilmiy hal etishda dastur bo'la oladi...» [6]

Hozirgi paytda jahoning turli mamlakatlari, jumladan, Amerika, Angliya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlardagi olimlarning e'tiborida nutq madaniyati va notiqlik alohida o'rinda turadi. Bunga Pol. L.Soper, Edgar I.Uillis, D.Karnegi, M. Berkli-Alen, Kris Styuard, Mayk Uilkinson kabilarning ishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. [7]

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati hamda notiqlik muammolari bilan jiddiy shug'ullanish 1969- yilda Toshkentda o'tkazilgan 1 Respublika anjumanida ta'kidlandi. Afsuski, o'zbek tili nutq madaniyati va notiqlik san'ati, notiqlik uslubiga oid ishlarda uni nazariy jihatdan o'rganishga jiddiy e'tibor berilgan emas. O'zbek tilshunoslaridan E.Begmatov, S.Inomxo'jaev, L.Xo'jaeva, T.Qudratov, X.Jalilov, R.Qo'ng'urov, Yo.Tojiev, B.O'rinboev, A.Soliev, M.Mukarramov ishlarida notiqlikka oid ba'zi izlanishlar olib borilgan. [8]

Shunga qaramasdan, «nutq madaniyati va notiqlik, notiqlik san'ati tushunchalari orasidagi umumiylik va farqli tomonlarni tadqiq qilish, notiqlik san'atida nutqiy madaniyatning o'rni va rolini belgilash» [9] dolzarb muammolardan biri bo'lib turibdi.

Notiqlikning lisoniy-uslubiy xususiyatlari uslubiyat fanining hali to'liq nazariy asoslanmagan muammolaridan bo'lib, notiqlikning lisoniy-uslubiy amaliyoti ustida hali tugal bir qo'llanma yaratilmagan. Shu paytgacha o'zbek filologiyasida notiqlikka san'at sifatida qaralib, uning ijtimoiy yo'nalishi o'rganilib, xususiyatlari lisoniy aspektda yoritilmagan.

Notiqlik san'atining o'ziga xos lisoniy birliklari, vositalari mavjudki, aynan, shu vositalar notiqlik mahoratini yuzaga keltiradi. Notiqlik san'atining yuzaga kelishida notiqlikning lisoniy-uslubiy vositalari ahamiyatini isbotlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Jonli so'zning beqiyos qudratidan bahramand bo'lish o'zbek xalqining xislatlaridan biridir. Notiqlik – chiroyli va ta'sirchan nutq so'zlash ilmi, badiiy yetuk so'zlangan nutq san'atidir. Notiqlik nutqi daliliy materiallarga boy bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1. O'z fikrini isbotlash, ya'ni keltirilgan dalillarning to'g'riligini ko'rsatib berish; 2. Tinglovchilarga estetik zavq bag'ishlash; 3. Tinglovchilarning ongiga, qalbiga, kayfiyatiga ta'sir etish, kishilarni faollikka undash.

Qayd etilganidek, jonli soʻz, notiqlik sanʼatiga qadim zamonlardan buyon alohida eʼtibor berib kelinadi. Hozirgi vaqtda esa bu soha kishilariga talab kattadir. Notiq oldida oʻz nutqining sifatini yaxshilash va takomillashtirish vazifasi turadi. Nutqning muvafaqqiyatli chiqishida, nutqning shakliy tomoni ham katta ahamiyatga ega.

Nutqning taʼsirchan boʻlishi uchun aniq va ravshan talaffuz, toʻgʻri, oʻz oʻrnida qoʻyilgan toʻxtamlar boʻlishi shart. Shuningdek, nutq surʼati, ovoz kuchi, nafas, tinglovchilar bilan izchil aloqa bogʻlay olish, qoʻl harakati va shu kabi nolisoniy va boshqa lisoniy vositalarga ham alohida ahamiyat berish talab qilinadi.

Til boyligidan mohirlik bilan foydalanish, matn mazmuniga moslab qoʻllash, ularni asosiy maqsad va vazifalarga boʻysundira olishning oʻzi nutq madaniyatidir. Notiqlik oʻzida mantiqiylik, taʼsirchanlik, obrazlilik, hissiylik va shu orqali ishontiruvchanlik kabi xususiyatlarni mujassamlashtiradi.

Notiqlik nutqida ritorik savol-javoblar, koʻtarinki soʻz va soʻz birikmalari, boʻyoqdor soʻzlar, xitob qilish, murojaat etish kabi va yana boshqa bir qator usullar qoʻllanadi.

Tinglovchi bilan notiq oʻrtasida aloqa oʻrnatilishida ritorik savol usulining qoʻllanishi ahamiyatlidir. Bu usulning qoʻllanishi tinglovchilarni nutq mavzusi ustida oʻylashga, fikr yuritishga undaydi.

Notiqlik - bu nutqiy mahorat, noyob qobiliyat ham. Nutqiy mahoratni egallash uchun notiq, avvalo, oʻz oldiga talab qoʻyadi va shu talablarga rioya qiladi. Har bir notiq oʻz ustida ishlab, nutqiy mahoratini oshirib borishi shart. Qadimgi Rimning mashhur notiqalaridan sanalgan Mark Tulliy sitseron shunday degan edi: «Kishi shoir boʻlib tugʻiladi, notiq boʻlib yetishadi». Sitseron fikricha, notiqqa qoʻyiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Notiq nutq jarayonida dadil boʻlishi, nutq mavzusini chuqur bilishi kerak;
2. Nutq toʻla isbotlanishi kerak;
3. Nutq oldi-qochdi soʻzlardan, ahamiyatsiz fikrlardan holi boʻlishi lozim;
4. Nutq materiallarini sidqidillik bilan toʻplash, bu materiallar oʻz mavzusi bilan tinglovchilarda qiziqish uygʻotishi kerak;
5. Manbalarni reja asosida joylashtirish, tushunishga oson boʻlishini taʼminlash lozim.

Notiq oʻz tinglovchisini topa olishi va soʻziga qarata olishi kerak, buning barchasi notiqning aytayotgan soʻziga, yuritayotgan fikriga bogʻliq: «Behuda soʻz aytmagilkim, behuda soʻz devonalarning soʻzidir. Har kishiga gapirmoqchi boʻlsang, qaragilkim, u sening soʻzingning xaridorimi yo yoʻqmi... eshitkuvchiga yoqadigan soʻzni gapir, toki sening soʻzingga xaridor boʻlsin».

Keltirilganlardan xulosa qilib shuni aytish lozimki, notiqlik nutqi lugʻaviy, sintaktik nuqsonlar, mantiqiy murakkablik va chalkashliklardan holi boʻlgan, oʻziga xos talaffuz, ohang, ritorik shakllar kabi xususiyatlarga ega, lugʻaviy, grammatik, sintaktik hamda nolisoniy vositalar bilan ifodalanadigan chin maʼnodagi nutqiy kamoladdir.

Darhaqiqat, notiqning nutqi chiroyli, jozibali boʻlishi bilan bir qatorda mazmunli, mantiqan kuchli boʻlishi ham lozim. Notiqlikning asl mohiyatini tushunib yetish uchun notiqlikni yaratuvchi vositalarni egallash, notiqlik nutqi madaniyatidan xabardor boʻlish, notiqlikning mazmuniy-funksional koʻrinishlarini va bu turlarini yaratuvchi lisoniy va nolisoniy vositalarini bilish maqsadga muvofiqdir. Bu masalalar ishimizning keyingi sahifalarida batafsil yoritilgandir.

Bugungi kunda, O'zbekiston dunyoga, dunyo xalqlari O'zbekistonga nazar tashlayotgan bir davrda notiqlik san'ati usullarining o'rganilishi naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Xorijiy davlatlarga borayotgan o'zbek diplomatlari, uning boshqa vakillari kasbiy mahoratlaridan tashqari notiqlikdan ham xabardor bo'lsalar, bu hol ularning o'z fikrlarini erkin va dadil, yorqin ifodalay olishlarida qulayliklar yaratadi. O'tmish voizlarimizning ishlaridan xabardor bo'lib, ular qo'llagan usul va vositalarni puxta egallasak, xalqimiz orasida ma'rifiy-amaliy ishlarni olib borish va milliy mafko'ramizning ma'naviy manbalarini to'g'ri belgilab olishimizda nihoyatda qo'l keladi.

Demak, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ozod yurtimizga erkin fikr yurita oladigan, ma'naviyati yuksak notiq, voizlar kerak. Notiqlikni mukammal egallagan kishi aholi bilan erkin bahslashi oladi, suhbat quradi, o'zbek adabiy tili nutq madaniyatini mukammal biladi. Madomiki, «erkin fuqaro - ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur».

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Avtoreferat. 2000 y., 1-b.
2. Begmatov E. Nutq, odobi. –T, O'qituvchilar gazetasi, 1969, 25 may, 3-bet.
3. Uvatov U. Donolardan saboqlar.-T., A.Qodiriy nomli xalq merosi nashr., 1994, 34-b.
4. Ortiqov A. va b. Oliy maktab pedagogining nutq madaniyati. –T.:IIB Akademiyasi, 2001 y, 5-bet.
5. Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi.-T.: Fan, 1973.
6. Begmatov E. va b. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari.-T.: Fan, 1988, 27-b.
7. Qarang: Д.Карнеги. Как вырабатывать уверенность в себе и влиять на людей, выступая публично.-T.: Шарқ, 1992; Пол Л.Сопер. Основы искусства речи. –M.: Яхтсмен, 1995; Э.Уиллис. Основы радиовещания. -Нью-Йорк, 1951; М.Беркли-Ален. Забытое искусство слушать, 1997.; Крис Стюард, Майк Уилкинсон. Блеф-серия. – Санкт-Петербург: 2001.
8. Qo'ng'urov O., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.-T.: O'qituvchi, 1992, 9-b.
9. Qarang: E.Begmatov. Notiqning nodir boyligi.-T.: O'zbekiston, 1980; Xo'jaeva L. Notiqlik san'ati.-T.: O'zbekiston, 1976; Mukarramov, M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili.-T.: Fan, 1984; O'rinboev B., Soliev A. Notiqlik mahorati. –T.: O'qituvchi, 1984.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/7 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).